I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil yanvar-iyun oylari uchun Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YaHM) hajmi joriy narxlarda 29 396,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,6 %ga o‘sdi.

YaHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 109,9 %ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,3 %ga yetdi

Yalpi hududiy mahsulot

(2023- yil yanvar-iyun holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko‘rsatkichlar	*mlrd.so‘m*		*2022- yil nisbatan, % hisobida*
	2022-yil	*2023-yil*	
Yalpi hududiy mahsulot, jami	**25 320,5**	**29 396,2**	**105,6**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	24 480,6	28 644,2	105,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	839,9	752,0	109,9
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**24 480,6**	**28 644,2**	**105,5**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**7 853,2**	**9 223,8**	**104,4**
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**6 528,9**	**7 244,2**	**108,4**
sanoat	4 936,1	5 223,7	104,2
qurilish	1 592,8	2 020,5	121,3
Xizmatlar	**10 098,5**	**12 176,2**	**104,5**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 917,7	2 295,5	105,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 502,7	1 767,1	105,6
boshqa xizmatlari	6 678,1	8 113,6	103,8

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) *– milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.*

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur’atlari YaHM o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining o‘sish sur’ati- 104,4%, (YaHM tarkibidagi ulushi- 32,2%), sanoat- 104,2% (18,2 %), qurilish 121,3% (7,1%), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar- 105,8 % (8,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa- 105,6 % (6,2 %) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar- 103,8 % (28,3 %)ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari



iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,4 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,6 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 32,2 %ni, sanoat tarmog‘i 18,2 %ni, qurilish 7,1 %ni va xizmatlar sohasi 42,5 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 42,5 %ni tashkil etdi va 2022- yil (41,2 %) bilan taqqoslanganda 1,3% punktga ko‘paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi

(yanvar-iyun holatiga, jamiga nisbatan foizda)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,0 %ni (2022-yil- 7,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,2 %ni (6,1 %), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 28,3%ni (27,3 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(yanvar-iyun, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 7 357,3 ming so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning (6 469,7 ming so‘m) mos davriga nisbatan 3,5 %ga o‘sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 67,4 %ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %

2023-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 67,4 % (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 67,0 %)ni tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMni shakllantirishda Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,3 %ni tashkil etdi.

YaIM da Farg‘ona viloyatining ulushi, *foizda*



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–iyun holatiga

Hududlar	*YaHM mlrd. so‘m*			*Aholi jon boshiga, ming so‘m*		
	2022- yil	*2023 - yil*	*%*	*2022- yil*	*2023- yil*	*%*
O‘zbekiston Respublikasi	**397 340,4**	**469 619,0**	**105,6**	**11 212,5**	**12 973,4**	**103,4**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13 055,4	13 635,1	100,0	6 676,6	6 881,2	98,6
Andijon	22 767,9	26 594,1	103,0	6 965,4	7 966,1	100,8
Buxoro	19 261,2	22 625,6	103,6	9 710,2	11 216,9	101,9
Jizzax	10 818,5	13 414,7	104,0	7 458,0	9 043,8	101,7
Qashqadaryo	21 749,6	25 911,9	104,3	6 353,0	7 405,5	102,0
Navoiy	31 836,4	36 242,5	104,6	30 641,4	34 178,1	102,5
Namangan	17 182,4	20 100,3	105,5	5 834,0	6 671,4	103,1
Samarqand	25 469,6	30 304,7	105,5	6 288,2	7 322,3	103,2
Surxondaryo	15 689,7	18 888,1	104,4	5 690,4	6 694,6	102,1
Sirdaryo	7 541,8	9 150,5	104,9	8 543,0	10 159,4	102,8
Toshkent v.	42 935,5	48 194,5	103,4	14 549,5	16 029,0	101,5
Farg‘ona	**25 320,5**	**29 396,2**	**105,6**	**6 469,7**	**7 357,3**	**103,5**
Xorazm	13 217,2	15 642,2	105,2	6 846,9	7 960,4	103,3
Toshkent sh.	69 405,0	83 267,0	107,9	24 049,7	27 960,7	104,5